



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 264 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сеитова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
Muxitdinova Nigora Mexriddinovna	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
Azerbayeva Elmira Muratbayevna	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
Niyazova Bibiniso Boltayevna	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi	



O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Robiya Toshpo'latova Akmal qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ORCID: 0009-0004-5895-8905

X. A. Asqarova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilingan. Oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, shaxsning ichki nizolari va o'z-o'zini anglash xususiyatlari ko'rib chiqilgan hamda profilaktika yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, o'smirlik davri, ijtimoiylashuv, shaxs psixologiyasi, agressivlik, oilaviy tarbiya, profilaktika.

Abstract: This article analyzes the psychological factors influencing the formation of deviant behavior in adolescence. The influence of the family environment, peer relationships, internal personal conflicts, and features of self-awareness are examined, along with directions for prevention.

Key words: deviant behavior, adolescence, socialization, personality psychology, aggressiveness, family upbringing, prevention.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические факторы, влияющие на формирование девиантного поведения в подростковом возрасте. Рассмотрены влияние семейной среды, сверстников, внутренние конфликты личности и особенности самосознания, а также направления профилактики.

Ключевые слова: девиантное поведение, подростковый возраст, социализация, психология личности, агрессивность, семейное воспитание, профилактика.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda o'smirlar orasida kuzatilayotgan deviant xulq-atvor ko'rinishlari - agressivlik, itoatsizlik, qochoqlik, zararli odatlarga moyillik va huquqbuzarlik holatlari - nafaqat pedagogik, balki chuqur psixologik tahlilni talab qiluvchi dolzarb muammolardan biridir. O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng nozik va ziddiyatli bosqichi hisoblanadi, chunki bu davrda bola ijtimoiy me'yorlarni qayta baholaydi, mustaqillikka intiladi va o'zligini izlash jarayonini boshdan kechiradi. Ushbu jarayonlarning nomutanosib kechishi ko'p hollarda xulq-atvorning me'yordan chetlanishiga olib keladi.

Deviant xulq-atvor muammosi psixologiya fanida uzoq tarixga ega bo'lib, uni turli nazariy yondashuvlar asosida tushuntirishga urinishlar mavjud. Biroq o'smirlik davriga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarning - o'z-o'zini anglash inqirozi, hissiy beqarorlik, tengdoshlar guruhiga bog'liqlik va identifikatsiya jarayonlarining - deviant xulq-atvor shakllanishidagi o'rni hali ham to'liq tizimlashtirilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi o'smirlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, deviant xulq-atvorning oldini olish va tuzatish ishlari faqat uning tashqi ko'rinishlarini emas, balki uning ichki, psixologik sabablarini chuqur tushunishni talab qiladi. Shu bois oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'smir shaxsiga ta'siri masalasi maqolada alohida e'tiborga olingan.

So'nggi yillarda respublikamizda o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarlik, giyohvandlik va boshqa salbiy hodisalarning oldini olish davlat siyosati darajasida muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu esa amaliyotchi psixologlar, pedagoglar va ota-onalar oldiga deviant xulq-atvorning ilk belgilarini o'z vaqtida aniqlash hamda unga ilmiy asoslangan tarzda yondashish vazifasini qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, o'smirlik davriga xos psixologik qonuniyatlarni chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- deviant xulq-atvor tushunchasining psixologik mohiyatini ochib berish;

- o'smirlik davriga xos rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;
- deviant xulq-atvorga olib keluvchi ichki va tashqi omillarni tizimlashtirish hamda olingan xulosalar asosida profilaktik ishlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'smirlik davridagi shaxs rivojlanishi, predmeti sifatida esa ushbu davrda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar va ularning o'zaro bog'liqligi belgilandi. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, mavjud ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish asosida amalga oshirildi. Biroq unda keltirilgan xulosalar amaliyotchi psixologlar va pedagoglar uchun ham nazariy, ham metodik ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulq-atvor tushunchasi ilmiy adabiyotda ijtimoiy me'yorlardan chetga chiquvchi, atrofda qilargani yoki shaxsning o'ziga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barqaror xatti-harakatlar tizimi sifatida talqin etiladi [1; B. 14-19].

Ye.V. Zmanovskaya o'z tadqiqotlarida deviant xulq-atvorni uch turga: delinkvent (huquqbuzar), addiktiv (bog'liq) va patoxarakterologik xulq-atvorga ajratadi. Bu tasnif o'smirlar bilan olib boriladigan amaliy ishlarda keng qo'llaniladi [1; B. 35-40].

A.Ye. Lichko tomonidan ishlab chiqilgan xarakter aksentuatsiyasi nazariyasi o'smirlik davridagi xulq-atvor og'ishlarini shaxs karakterining o'ziga xos, ammo patologik bo'lmagan kuchayishi bilan bog'laydi [2; B. 22-30]. Ushbu yondashuvga ko'ra, gipertimlik, epileptoidlik yoki labillik kabi aksentuatsiyalar muayyan sharoitlarda deviant xulq-atvor uchun "zaif nuqta" vazifasini o'tashi mumkin.

Yu.A. Kleyberg deviant xulq-atvorni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko'rib, uning shakllanishida shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni asosiy omil deb hisoblaydi [3; B. 45-52].

M. Rutter esa "qiyin bolalar"ga yordam berish tajribasiga asoslanib, oilaviy tarbiya uslubi va ota-ona bilan hissiy aloqaning buzilishi deviant xulq-atvorning eng kuchli bashoratchisi ekanligini ta'kidlaydi [4; B. 58-66].

Ya.I. Gilinskiy deviantologik hodisalarni ijtimoiy tuzilma darajasida tahlil qilib, jamiyatdagi ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi, me'yorlar tizimidagi ziddiyatlar hamda ijtimoiy tengsizlikning deviant xulq-atvorni kuchaytiruvchi makroomillar ekanligini ta'kidlaydi [5; B. 80-88]. Bu yondashuv shaxs darajasidagi psixologik tahlilni ijtimoiy kontekst bilan boyitish imkonini beradi.

V.A. Averin bolalar va o'smirlar psixologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida yosh davrlarining o'ziga xos inqirozli bosqichlarini tahlil qilib, aynan o'smirlik davridagi "kattalik hissi"ning shakllanishi va uning atrof-dagilar tomonidan tan olinmasligi ko'pgina xulq-atvor og'ishlarining psixologik zaminini tashkil etishini ko'rsatadi [6; B. 210-218].

Milliy psixologiya fanida V.M. Karimova yosh davrlari psixologiyasini tahlil qilar ekan, o'smirlik davrining o'ziga xos ijtimoiy vaziyati va yetakchi faoliyat turi - intim-shaxsiy muloqotning shaxs kamolotidagi o'rnini alohida ta'kidlaydi [7; B. 95-102].

Z. Ismoilova esa o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarni tadqiq etib, moslasha olmaslik holatlarining aksariyat hollarda deviant xulq-atvor shakllariga o'tishini amaliy tadqiqotlar asosida asoslab beradi [8; B. 55-63].

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy-tavsifiy metod hamda mavjud psixologik nazariyalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun rus va o'zbek tillaridagi ilmiy manbalar, shu jumladan deviantologiya sohasidagi asosiy nazariy asarlar tanlab olindi. Ma'lumotlarni tizimlashtirish jarayonida deviant xulq-atvorga olib keluvchi omillar shartli ravishda uch guruhga: ichki (shaxsiy), oilaviy va ijtimoiy omillarga ajratildi. Manbalarni tanlashda ularning deviantologiya sohasidagi nazariy va amaliy ahamiyati, shuningdek, o'smirlar psixologiyasiga bevosita aloqadorligi asosiy mezon sifatida olindi.

Deviant xulq-atvorning turlarga bo'linishi masalasida ilmiy adabiyotda bir qancha yondashuvlar mavjud. Eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, deviant xulq-atvor quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi: agresiv-zo'ravon xulq-atvor (janjal, boshqalarga nisbatan zo'ravonlik), addiktiv xulq-atvor (chekish, spirtli ichimliklar va boshqa zararli moddalarga moyillik), delinkvent xulq-atvor (huquqbuzarlik bilan bog'liq harakatlar), shuningdek, o'z-o'ziga zarar yetkazuvchi xulq-atvor. Har bir shakl o'ziga xos psixologik mexanizmlarga ega bo'lib, ularni bir xil usulda tuzatib bo'lmaydi [1; B. 42-48].

Agresiv xulq-atvor ko'pincha o'smirning ichki taranglikni tashqi muhitga yo'naltirishi natijasida yuzaga keladi va u frustratsiyaga reaksiya sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Addiktiv xulq-atvor esa, aksincha, shaxsning real muammolardan qochish, o'zini noqulay hissiy holatdan chalg'itish istagi bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi. Delinkvent xulq-atvor



esa ko'proq ijtimoiy me'yorlarni ongli ravishda buzish, guruh normalariga ergashish yoki o'zini tasdiqlashning muqobil usuli sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'smirlarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni quyidagi asosiy guruhlariga birlashtirish mumkin:

- *birinchidan, shaxsiy omillar* - o'z-o'zini anglashdagi beqarorlik, past o'z qadr-qimmatini, xarakter aksentuatsiyalari va hissiy-irodaviy sohaning yetuk emasligi;
- *ikkinchidan, oilaviy omillar* - nazoratning yetishmasligi yoki haddan tashqari qattiqqo'llik, hissiy ilqlikning yo'qligi va ota-ona bilan ishonchli munosabatning buzilishi;
- *uchinchidan, ijtimoiy omillar* - tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri, konformizm va ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, bu omillar alohida emas, balki bir-birini kuchaytiruvchi tarzda ta'sir qiladi. Masalan, oilada hissiy ilqlik yetishmagan o'smir tengdoshlar guruhida o'zini tasdiqlashga ko'proq moyil bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, guruh normalariga bog'liqlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, xarakter aksentuatsiyalariga ega o'smirlarda noqulay muhit ta'sirida deviant xulq-atvor namoyon bo'lish ehtimoli sog'lom oilaviy muhitdagi tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lishi aniqlandi.

Shuningdek, profilaktik ishlarning samaradorligi aynan shu uch omil guruhiga kompleks ta'sir ko'rsatilganda ortishi ko'rsatib o'tildi: oilaviy munosabatlarni yaxshilash, o'smirning hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirish bo'yicha psixologik mashg'ulotlar hamda ijobiy tengdoshlar muhitini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni birlashtirish eng samarali yondashuv sifatida baholandi.

Tahlil natijalari asosida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi tavsiyalarni shakllantirish mumkin:

- *birinchidan*, maktab psixologlari o'smirlarning hissiy holatini muntazam monitoring qilib borishi va xavf guruhini o'z vaqtida aniqlashi lozim;
- *ikkinchidan*, ota-onalar bilan psixologik-pedagogik maslahat ishlarini kuchaytirish, ularga farzand bilan ishonchli muloqot o'rnatish ko'nikmalarini o'rgatish zarur;
- *uchinchidan*, o'smirlarning ijobiy energiyasini yo'naltirish uchun sport, ijodiy va ijtimoiy foydali faoliyat turlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi;
- *to'rtinchidan*, raqamli muhitda xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, deviant xulq-atvorning oldini olish ishlari alohida tadbir sifatida emas, balki oila, ta'lim muassasasi va psixologik xizmatning uzluksiz hamkorligi asosida tashkil etilgandagina barqaror natija berishi mumkin.

Shuningdek, tahlil davomida deviant xulq-atvor xavfi yuqori bo'lgan o'smirlarni erta aniqlash mezonlari ham ishlab chiqildi. Bunga o'qishga bo'lgan qiziqishning keskin pasayishi, uzoq muddatli emotsional beqarorlik, oiladan yoki maktabdan uzoqlashish tendensiyasi, shuningdek, yangi, nazoratsiz ijtimoiy muhitga qiziqishning ortishi kabi belgilar kiradi. Ushbu belgilarning bir nechta bir vaqtning o'zida kuzatilganda, mutaxassislar tomonidan chuqurroq psixologik diagnostika o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, o'smirlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarda jazolovchi emas, balki tushunuvchi va qo'llab-quvvatlovchi yondashuvning ustunligi tasdiqlandi. Tadqiqot ko'rsatishicha, qat'iy jazo choralariga asoslangan usullar ko'pincha qisqa muddatli natija bersa-da, uzoq muddatda o'smirning kattalarga bo'lgan ishonchini yanada pasaytiradi va deviant xulq-atvorning yashirin shakllarga o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois muloqotga asoslangan, o'smir shaxsini hurmat qiluvchi psixologik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'smirlik davri - bu bolalik va kattalar hayoti o'rtasidagi o'tish bosqichi bo'lib, unda shaxsning "Men" obrazi faol shakllanadi. Aynan shu davrda o'z-o'zini anglashning beqarorligi, o'z qadr-qimmatini his qilishdagi tebratishlar va kattalar dunyosidan mustaqil bo'lishga bo'lgan kuchli ehtiyoj kuzatiladi. Agar bu ehtiyojlar ijobiy yo'nalishda qondirilmasa, o'smir o'zini namoyon qilishning muqobil, ko'pincha ijtimoiy me'yorlarga zid yo'llarini izlay boshlaydi.

Oilaviy muhitning roli bu borada alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning haddan tashqari qattiqqo'lligi yoki, aksincha, nazoratning yo'qligi, oilada hissiy ilqlikning yetishmasligi bolada ichki norozilik va ishonchsizlik hissini kuchaytiradi [4; B. 70-75]. Bunday holatda o'smir o'zini oilada emas, balki tashqi muhitda, ko'pincha norasmiy tengdoshlar guruhida tasdiqlashga harakat qiladi.



Tengdoshlar guruhining ta'siri o'smirlik davrida ayniqsa kuchayadi, chunki bu yoshda ijtimoiy taqqoslash va guruhga mansublik hissi shaxsning o'zini o'zi baholashining asosiy manbalaridan biriga aylanadi. Agar o'smir norasmiy, deviant yo'nalishga ega guruhga qo'shilsa, guruh normalari uning shaxsiy xulq-atvor andozalariga aylanishi mumkin. Bunda konformizm - guruh fikriga moslashish tendensiyasi - muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [3; B. 60-65].

Hissiy-irodaviy sohaning yetarlicha rivojlanmaganligi ham muhim omil hisoblanadi. O'smirlarda impulsivlik, past frustratsiyaga chidamlilik va o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishdagi qiyinchiliklar ko'pincha stressli vaziyatlarda konstruktiv bo'lmagan reaksiyalarga - agressiya, o'zini chetga olish yoki risqli xatti-harakatlarga - olib keladi. Bunday holatlar, ayniqsa, o'z-o'zini anglash inqirozi kuchli kechayotgan o'smirlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, shaxsning o'ziga xos xarakterologik xususiyatlari - aksentuatsiyalar - muayyan sharoitlarda deviant xulq-atvor uchun qulay zamin yaratishi mumkin. Biroq bu omil yagona sabab emas, balki noqulay ijtimoiy-oilaviy sharoit bilan birgalikda ta'sir ko'rsatganda xavf omiliga aylanadi. Shu tariqa deviant xulq-atvorni faqat bitta omil bilan emas, balki shaxs, oila va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o'smirlar hayotiga yangi psixologik omillarni olib kirmoqda. Virtual muhitda shaxsning o'zini boshqacha, ko'pincha real hayotdagidan farqli tarzda namoyon qilish imkoniyati, shuningdek, internet orqali salbiy namunalarga tez va nazoratsiz kirish imkoniyati o'smirning qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ota-ona va pedagoglar tomonidan raqamli muhitdagi xulq-atvorni ham psixologik nazorat doirasiga kiritish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi "idealizatsiya" hodisasi, ya'ni boshqalarning hayoti va yutuqlarini doimiy taqqoslash orqali o'z-o'zini past baholash tendensiyasining kuchayishi ham diqqatga sazovordir. Bunday taqqoslash natijasida ba'zi o'smirlarda ichki norozilik, hasad yoki tashvish darajasining ortishi kuzatiladi, bu esa, o'z navbatida, xulq-atvor og'ishlariga zamin yaratuvchi qo'shimcha psixologik yuk hisoblanadi.

Jinsiy tafovutlar nuqtayi nazaridan olib qaraganda, o'g'il bolalarda deviant xulq-atvor ko'pincha ochiq agressiya va me'yorga qarshi harakatlar shaklida namoyon bo'lsa, qiz bolalarda u ko'proq yashirin shakllarda - o'zini chetlashtirish, ichki tajovuzkorlik yoki hissiy izolyatsiya ko'rinishida kuzatiladi. Bu farq profilaktik va tuzatish ishlarini tashkil etishda jins xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, deviant xulq-atvorning barcha ko'rinishlari bir xil darajada xavfli emas. Ba'zi hollarda u shaxsning yosh davriga xos vaqtinchalik norozilik reaksiyasi bo'lib, o'z-o'zidan barqarorlashishi mumkin. Biroq, agar bunday xulq-atvor uzoq muddat davom etsa va shaxsning boshqa hayotiy sohalariga - o'qish, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy aloqalarga - salbiy ta'sir ko'rsata boshlasa, bu holat maxsus psixologik yordamni talab qiladigan barqaror deviansiyaga aylanish xavfini tug'diradi.

O'smirlik davrining o'zi ham bir xil emas, balki ichki bosqichlarga bo'linadi va bu bosqichlarning har biri deviant xulq-atvorning namoyon bo'lish xususiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kichik o'smirlik davrida (taxminan 11-13 yosh) xulq-atvor og'ishlari ko'proq itoatsizlik, o'qishga qiziqishning pasayishi va kattalar bilan ziddiyatlarning kuchayishi shaklida namoyon bo'ladi. O'rta va katta o'smirlik davrida (14-16 yosh) esa deviant xulq-atvor ko'proq barqaror, ongli tanlov xarakteriga ega bo'lib, ba'zan guruh jinoyatchiligi yoki zararli odatlarga chuqur bog'lanish darajasiga yetishi mumkin. Shu sababli profilaktik ishlarni tashkil etishda o'smirning aniq yosh bosqichini hisobga olish katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik muhitning, xususan, maktab va sinf jamoasining roli ham alohida tahlilga loyiqdir. O'qituvchi bilan munosabatlarning keskinlashishi, sinfdoshlar orasida rad etilish yoki mazax qilinish holatlari o'smirda ichki yolg'izlik hissinı kuchaytirib, uni norasmiy, ko'pincha deviant yo'nalishga ega muhitga jalb qilishi mumkin. Aksincha, ijobiy pedagogik muhit, o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashuvi va sinfda hamkorlik ruhi deviant xulq-atvor xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarda deviant xulq-atvorning shakllanishi murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, u shaxsning ichki psixologik xususiyatlari, oilaviy tarbiya uslubi va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'sirida yuzaga keladi. O'z-o'zini anglashdagi beqarorlik, hissiy-irodaviy sohaning yetarlicha shakllanmaganligi, oilada ishonchli munosabatlarning yo'qligi va tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri deviant xulq-atvorning eng muhim psixologik omillari sifatida belgilandi.

Deviant xulq-atvorning oldini olish borasidagi ishlar samarali bo'lishi uchun uni yagona sabab bilan emas, balki tizimli yondashuv asosida - oila, maktab va psixologik xizmat hamkorligida - olib borish zarur. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu omillarning har birining nisbiy ta'sir darajasini aniqlash maqsadida amaliy-eksperimental tadqiqotlar o'tkazish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.



Yakun sifatida ta'kidlash joizki, o'smir shaxsining sog'lom rivojlanishi uchun eng samarali strategiya - bu deviant xulq-atvor yuzaga kelgandan keyin unga qarshi kurashish emas, balki uning oldini olishga qaratilgan uzluksiz, tizimli ishdur. Oilada ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish, maktabda har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini hisobga oluvchi pedagogik muhitni yaratish hamda psixologik xizmatning erta diagnostika va yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish - bularning barchasi o'smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishning eng ishonchli yo'li hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida shakllantirilgan xulosalar amaliyotchi psixologlar, maktab pedagoglari va otalar uchun o'smirlar bilan ishlashda nazariy yo'l-yo'riq vazifasini o'tashi mumkin. Ayni paytda, deviant xulq-atvor muammosi doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida yangi shakllar kasb etib borishini hisobga olgan holda, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish, xususan, mahalliy sharoitda amaliy-empirik tadqiqotlar olib borish kelgusi ilmiy ishlarning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Змановская Е.В. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения). - М.: Издательский центр "Академия", 2004. - 288 с.
2. Личко А.Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков. - Л.: Медицина, 1983. - 256 с.
3. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения. - М.: ТЦ Сфера, при участии "Юрайт-М", 2001. - 160 с.
4. Раттер М. Помощь трудным детям. - М.: Прогресс, 1987. - 424 с.
5. Гилинский Я.И. Девиантология: социология преступности, наркотизма, проституции, самоубийств и других "отклонений". - СПб.: Юридический центр Пресс, 2004. - 520 с.
6. Аверин В.А. Психология детей и подростков. - СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1998. - 379 с.
7. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. - 168 b.
8. Ismoilova Z. O'smirlarda ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolari. - Toshkent: Fan, 2015. - 142 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.